ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Ganiyev	4	Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish: jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil
M. Pardayeva	13	Yangi o'quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvi: strategik ustuvorliklar va boshqaruv amaliyotining diagnostik tahlili
A. Xolmurodov	22	Pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish: muammolar, huquqiy asoslar va istiqboldagi yo'nalishlar (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi misolida)
X. Nurmetov	26	Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari
U. Xasanov	30	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
U. Toxirov	33	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "PBL" va "Sun'iy intellekt" vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik muammolari va ularning yechimlari
D. Kamoljonova	38	Mutolaa sotsiometrik munosabatlarni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida
B. A'zamov	42	Multimedia texnologiyalari orqali talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish
R. Quziyev	46	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
D. Mo'ydinova	50	Talabalarda shaxsiy e'tiqodini shakllantirish texnologiyasi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	53	Uslubiyatning fonetik vositalari
D. Il'yasova	58	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
N. Kamolova	61	Kimyo ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
M. Kenjayeva	70	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari
D. Sadikov	74	Organik kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Sayidova	79	Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik ta'lim mazmunida ilg'or texnologiyalarning aks etishi
J. Buriyev	83	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish
U. Toxirov	86	Oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (pbl) texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashning pedagogik salohiyati

N. Temirov, X. Sirojiddinova	91	O‘quv jarayonini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish
		TA’LIMDA MENEJMET
Q. Almardanov	94	Maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonlarini optimallashtirish
		TA’LIMDA IQTISODIOT VA MOLIYALASHTIRISH
N. Boymuradov	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy boshqaruv modeli
A. Boltaev	109	Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
N. Dushayeva	115	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari
		PSIXOLOGIYA
X. Toshturdieva	119	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini deontologik qobiliyatlarini shakllantirishning hozirgi holati
M. Muzaffarova	127	Raqamli jamiyat sharoitida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasi va ota-onalik kompetentligining psixologik-pedagogik determinantlari
D. Adilova	131	Jamoadagi konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv murosaga olib kelishning zamonaviy mexanizmlari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Zayniddinova	135	Markaziy osiyoda suv resurslari muammosi va barqaror boshqaruv strategiyalari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Xoliqulova	138	Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi

Bunyodjon A‘ZAMOV,
Qo‘qon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARDA RAQAMLI KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta‘limda talabalarda raqamli kompetentlikni (Digital Competency) rivojlantirish metodikasi multimedia texnologiyalari asosida tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli kompetentlikning tarkibiy komponentlari aniqlanib, uning shakllanishida multimedia vositalarining o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Multimedia texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga integratsiyalashning uch bosqichli metodik modeli taklif etilgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli kompetentlik, multimedia texnologiyalari, metodik model, raqamli ta‘lim muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv o‘qitish, kognitiv bosqich, refleksiv bosqich.

В статье анализируется методика развития цифровой компетентности (Digital Competence) у студентов высшего образования на основе мультимедийных технологий. Также определены структурные компоненты цифровой компетентности, научно обоснована роль мультимедийных средств в ее формировании. Предложена трехэтапная методическая модель интеграции мультимедийных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова. Цифровая компетентность, мультимедийные технологии, методическая модель, цифровая образовательная среда, информационно-коммуникационные технологии, интерактивное обучение, когнитивный этап, рефлексивный этап.

The article analyzes the methodology for developing digital competence (Digital Competence) in higher education students based on multimedia technologies. Furthermore, the structural components of digital competence have been identified, and the role of multimedia tools in its formation has been scientifically substantiated. A three-stage methodological model for integrating multimedia technologies into the educational process is proposed.

Key words. Digital competence, multimedia technologies, methodological model, digital educational environment, information and communication technologies, interactive learning, cognitive stage, reflexive stage.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot jamiyatining shakllanishi ta’lim tizimiga yangicha talablar qo‘ymoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini takomillashtirish va talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois, multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiyalash va ulardan talabalarda raqamli kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo’lmoqda. Talabalarga ma‘ruza slaydlarini namoyish qilish va videoyozuvlarni ko‘rsatish bilan cheklanadigan multimedia qo‘llanilishi ko‘p hollarda o‘quv muassasalarimizda kuzatiladigan amaliyotdir. Biroq bu yondashuv fundamental bir muammoni e‘tibordan chetlashtiradi: talabaning o‘zi raqamli mahsulot yaratishda, axborotni raqamli formatda tahlil qilishda va raqamli muhitda tanqidiy fikrlashda qanchalik kompetentligini – ya‘ni raqamli kompetentligini – shakllantiramizmi? Tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalari ta‘lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan passiv ko‘rsatish vositasi sifatida emas, balki talabaning faol raqamli kompetentligini shakllantiruvchi muhit sifatida qo‘llanilganda uning samaradorligi bir necha barobar ortadi.

Raqamli kompetentlik (Digital Competency) tushunchasi zamonaviy pedagogikaning eng ko‘p muhokama qilinadigan va bir vaqtning o‘zida eng xilma-xil talqin qilinadigan kategoriyalaridan biriga aylandi. Yevrokomissiya tomonidan ishlab chiqilgan DigComp (Digital Competence Framework for Citizens) tizimi bu sohadagi eng keng qabul qilingan yondashuv hisoblanib, raqamli kompetentlikni besh asosiy sohani o‘z ichiga oluvchi murakkab tuzilma sifatida ta‘riflaydi: axborot va ma‘lumotlar savodxonligi, kommunikatsiya va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal etish. Ushbu čerchevc talabaning passiv foydalanuvchi emas, balki faol yaratuvchi va tahlilchi sifatida rivojlanishi zarurligini qat‘iy ta‘kidlaydi.

G‘arb olimlari orasida multimedia va raqamli kompetentlik masalasini eng chuqur o‘rgangan R.E.Mayer o‘zining “Multimedia Learning” asarida kognitiv yuklanish nazariyasiga asoslanib, multimedia materiallarining o‘rganuvchi xotirasiga qanday ta‘sir qilishini eksperimental jihatdan isbotlagan. Uning “dual coding” (ikki kanalli kodlash) modeli vizual va auditiv axborotning bir vaqtda taqdim etilishi o‘zlashtirishni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonlik olimlardan A.A.Abdulqodirov va D.E.Toshtemirov ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini keng qamrovli o‘rganib, mahalliy ta‘lim amaliyotiga mos yondashuv va tavsiyalar ishlab chiqdilar. U.Sh.Begimqulov oliy ta‘limda pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib, axborot muhitini tashkil etish va boshqarish masalalarini tizimli tadqiq etdi. B.G‘.Qodirov multimedia texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini maxsus o‘rganib, ta‘limda multimedia qo‘llanilishining pedagogik samaradorligi mezonlarini taklif etdi. R.J.Ishmuxamedov va M.Yuldashev ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar muammosini tizimli ishlab chiqib, multimedia va interaktiv texnologiyalarni ta‘limiy jarayonga integratsiyalashning metodologik asoslarini asosladilar.

Biroq mavjud adabiyotlar tahlili muhim bir ilmiy bo‘shliqni ochib beradi: tadqiqotlarning aksariyati multimedia texnologiyalarini o‘qituvchi qo‘lida instrument sifatida ko‘rib, ularni talabaning o‘z raqamli kompetentligini faol shakllantirish vositasi sifatida maqsadli metodika bilan qo‘llanishi masalasini etarlicha yoritgani yo‘q. Raqamli kompetentlikning DigComp čerchevesidagi barcha besh sohasi bo‘yicha talabalarda kompetentlikni rivojlantirishning izchil metodik modeli ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida uch bosqichli metodik modelni taklif etadi.

Raqamli kompetentlikni rivojlantirish pedagogikasi uchun avvalo bir muhim farqni aniq belgilash zarur: multimedia texnologiyalarini o‘quv jarayonida passiv qo‘llanishi va ularni kompetentlik shakllantirishning faol muhiti sifatida maqsadli tashkil etish o‘rtasidagi tafovut. Passiv integratsiya – bu o‘qituvchining PowerPoint taqdimoti, videodars yoki animatsiyali tushuntirish orqali talabaga ma‘lumot yetkazishi. Aktiv integratsiya – bu talabaning o‘zi multimedia mahsuloti yaratuvchisi, axborotni raqamli formatda tahlil qiluvchi va raqamli muammolarni hal etuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatishi. Ikki yondashuv o‘rtasidagi farq shunchaki texnik emas, balki fundamental didaktik mazmun kasb etadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik model uch bosqichdan iborat: kognitiv bosqich, faoliyat bosqichi va refleksiv bosqich. Ushbu model D.H.Jonassenning “mind-

tools” kontseptsiyasi va DigComp tizimining raqamli kompetentlik tarkibi asosiga qurilgan bo‘lib, o‘zbekistonlik olimlar A.A.Abdulqodirov [2] va B.G‘.Qodirovning [8] metodik ishlari bilan boyitilgan.

Kognitiv bosqich (Cognitive Stage) – talabalarda multimedia texnologiyalariga doir nazariy bilimlar va konseptual tushunchalarni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu bosqichda talaba multimedia texnologiyalarini faqat iste‘molchi nuqtayi nazaridan emas, balki axborot ishlab chiqaruvchi, dizayner va pedagog nuqtai nazaridan tushuna boshlaydi. Mayerning kognitiv yuklanish nazariyasiga ko‘ra, talabaga raqamli kontentni kognitiv jihatdan samarali idrok etish qonuniyatlarini tushuntirish o‘zi uning keyingi faoliyat bosqichidagi ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Kognitiv bosqichda qo‘llanadigan metodlar: interaktiv ma‘ruza (infografika va animatsiya bilan boyitilgan), multimedia tahlili (taqdim etilgan multimedia mahsulotini o‘rganish va qiyosiy baholash), konseptual xarita tuzish – raqamli bilim tuzilmasini vizual ifodalash. O.G.Smolyaninova multimedia ta‘limiy muhitni loyihalashda kognitiv faoliyatni rag‘batlantiruvchi strukturaning ahamiyatini alohida ta‘kidlagan.

Faoliyat bosqichi (Activity Stage) – bu metodik modelning asosiy va eng hajmli qismidir. Jonassenning g‘oyasiga muvofiq, kompetentlik faqat “bilib olish” orqali emas, “qilib ko‘rish” orqali shakllanadi. Faoliyat bosqichi talabani multimedia mahsuloti yaratuvchiga aylantiradi. Bu bosqichda qo‘llanadigan asosiy faoliyat turlari: multimedia taqdimot yaratish (nafaqat ma‘lumotni tuzish, balki vizual-auditiv kommunikatsiya tamoyillariga rioya qilgan holda samarali taqdimot loyihalash); raqamli infografika ishlab chiqish (murakkab ma‘lumotni vizual ravishda ifodalash ko‘nikmasi – raqamli kontent yaratish kompetentligining o‘zagi); videomaterial va podcast tayyorlash (auditiv-vizual mahsulot yaratish, ovoz montaji va video tahrir asoslari); interaktiv test va elektron vazifalar ishlab chiqish (LMS platformalarida foydalaniladigan raqamli o‘quv resurslari yaratish); virtual laboratoriya va simulyatsiyalar bilan ishlash (STEM fanlarida multimedia orqali tajriba modellashtirish). Mazkur faoliyatlarning har biri DigComp čerchevesidagi muayyan kompetentlik sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiq keladi.

Refleksiv bosqich (Reflective Stage) – bu bosqich talabalarda o‘z raqamli faoliyatiga tanqidiy baho berish, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘z kompetentlik darajasini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Siemensning konnektivizm nazariyasiga ko‘ra, raqamli asrda nafaqat bilim, balki bilim tarmoqlarini boshqarish va ularni tanqidiy baholash qobiliyati ham muhimdir [18]. Refleksiv bosqich metodlari: peer-review (talabalar bir-birining multimedia mahsulotlarini belgilangan mezonlar asosida baholashi), e-portfolio tahlili (o‘quv davri mobaynida yaratilgan barcha raqamli mahsulotlarning tizimli tahlili), raqamli kompetentlik xaritalash (DigComp ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z rivojlanish darajasini mustaqil baholash). Elektron portfolio (e-portfolio) usuli talabaning raqamli kompetentligi dinamikasini ko‘zatish uchun eng samarali vosita sifatida tan olingan.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalari oliy ta‘limda talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish uchun yetarli pedagogik potentsialga ega, ammo bu imkoniyatdan to‘liq foydalanish uchun maxsus ishlab chiqilgan metodik model talab etiladi. Passiv integratsiyadan – multimedia kontent ko‘rsatishdan – aktiv integratsiyaga – talabaning multimedia mahsuloti yaratuvchisi, tahlilchisi va muammolar hal qiluvchisiga aylanishiga – o‘tish raqamli kompetentlikning haqiqiy shakllanishini ta‘minlaydi. Taklif etilgan uch bosqichli model (kognitiv → faoliyat → refleksiv) DigComp čerchevesining barcha besh sohasi bo‘yicha talabada

maqsadli rivojlanishni ta‘minlaydi va o‘quv jarayonining mavjud tuzilmasi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, oliy ta‘lim muassasalari o‘quv fanlari sillabuslarini ko‘rib chiqib, har bir fanda multimedia mahsuloti yaratish topshiriqlarini (multimedia assignment) majburiy komponent sifatida kiritish zarur. Topshiriqlar talabaning passiv iste‘molchi emas, balki faol yaratuvchi ekanligi tamoyilidan kelib chiqqan holda loyihalanishi kerak – bu raqamli kompetentlikning kontent yaratish sohasidagi eng muhim komponentini to‘g‘ridan-to‘g‘ri rivojlantiradi.

Ikkinchidan, talabalarda raqamli kompetentlikni baholash uchun oddiy test yoki imtihon yetarli emas. E-portfolio tizimini joriy etish tavsiya etiladi: talaba o‘quv yili davomida yaratgan barcha raqamli mahsulotlarni (taqdimotlar, infografika, video, podcast, interaktiv topshiriqlar) bir platformada to‘plab, uning rivojlanish dinamikasi DigComp ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanishi lozim.

Uchinchidan, o‘qituvchilarning multimedia pedagogikasi sohasidagi malakasini oshirish – talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish metodikasining amaliyotga tatbiq etilishi uchun zaruriy shart. O‘qituvchi nafaqat multimedia vositasidan foydalana olishi, balki talaba uchun multimedia kompetentlik rivojlantiruvchi vazifalar loyihalashni ham bilishi shart. Buning uchun institutlarda multimedia pedagogikasi bo‘yicha maxsus malaka oshirish modullari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, LMS platformalar tanlashda pedagogik nuqtai nazarni birinchi o‘ringa qo‘yish kerak. Talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirishga ko‘proq imkon beradigan – multimedia yaratish, kollaborativ loyihalash va refleksiv baholash funktsiyalariga ega – platformalar ustuvor qilib belgilanishi lozim.

Beshinchidan, raqamli kompetentlik ko‘rsatkichlari davlat ta‘lim standartlariga kiritilishi va oliy ta‘lim muassasalarini akkreditatsiyalashda ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha monitoring o‘tkazilishi zarur. Tizimli o‘zgarishsiz alohida metodikalar cheklangan ta‘sir ko‘rsatadi. Multimedia texnologiyalari orqali raqamli kompetentlikni maqsadli rivojlantirish – bu raqamli iqtisodiyot uchun tayyor, yaratuvchi va tanqidiy fikrlovchi kadrlar tayyorlashning ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi hamda amaliyoti: ped. fan. doktori ... diss. – T., 2007. – 305 b.

3. Jo‘rayev R.H., Taylaqov N.I. Axborotlashgan ta‘lim muhiti – o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta‘lim. – 2004. – № 6. – B. 3–7.

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning amaliy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 261 b.

5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013. – 279 b.

6. Qodirov B.G‘. Multimedia texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning didaktik imkoniyatlari // Ta‘lim taraqqiyoti. – 2018. – № 4. – B. 45–51.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.